IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON . VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR ZAMIRIDA TARIXAN SHAKLLANGAN ANTROPOSENTRIK QARASHLAR

Muallif	**Xoliqova Dilfuzaxon Abdumuxtorovna**
O'qish yoki ish joyi	**Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti Ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi**
Qabul qilindi	**29.09.2023**
Nashr qilindi	**01.10.2023**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tilshunoslikning birmuncha yangi bo'limi sifatida rivojlanayotgan va bir qancha dolzarb ayni paytda yechimini kutayotgan muammolari mavjud bo'lgan Frazeologiya bo'limining tadqiqot obyekti bo'lgan frazeologik birliklar haqida so'z boradi. Muallif Frazeologik birliklarning tarixan kelib chiqishi o'tmishda va hozirda ishlatilishi Ingliz va O'zbek tillari negizida qiyosiy tadqiq etishga harakat qilgan.

Kalit so'zlar

Frazeologik birliklar, idiomatik birliklar, iboralar, linvokulturologik, antroposentrizm, tadqiqot, lug'at, kontekst, ekvivalent, ingliz frazeologik birliklari, idiomalar.

Millat va davlatlar ma'lum bir asriy dovonlar osha shakllanib borar ekan, ularning zamirida shu millat va davlatga tegishli bo'lgan til ham sayqallanib, yangicha ahamiyat kasb etgan holda shakllanib, rivojlanib borishi ayni haqiqatdir.

Til tarkibidagi har qanday birlik singari frazeologik birliklar ham o'z kelib chiqish tarixiga ega bo'lib, uni chuqur idrok etish orqali ushbu birlikning ishlatilish holati va sababi haqida atroflicha xulosa chiqarish orqali tanlangan frazeologik birlikning nutqda to'g'ri foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishimiz mumkin.

Shuningdek frazeologik birliklarning kelib chiqishini tahlil qilish mobaynida jamiyatning barcha sohalarida diqqat markazida bo'lgan ,xususan, bugungi kun zamonaviy Tilshunoslikning yangi tarmog'iga aylangan Frazeologiya bo'limining dolzarb mavzusiga aylangan antroposentrik qarashlar uchqunlari o'tmishda ham mavjud bo'lganligini anglash mushkul emas. Antroposentrizm haqida gap borar ekan shu o'rinda antroposentrik qarashlar nafaqat Tilshunoslikda balki, tasviriy san'at, haykaltaroshlik kabi badiiy va amaliy san'at kabi jamiyatning har bir sohasida yetakchi konsepsiyaga aylanganligini e'tirof etmaslikning imkoni yo'qligi barchamizga sir emas.Barcha harakatlarni-moddiyat va ruhiyatni insoniylik uchun va inson qadriyati uchun rivojlantira borish, shuningdek unga xizmat qildirish bugun yoki yaqin tarixda paydo bo'lib qolmagan aslida. Bu kabi qarashlar barcha harakatlar inson omili orqali amalga oshirilishi va ayni paytda uning o'ziga qulaylik ,hamda yangi imkoniyatlar yaratish zamirida paydo bo'lganligi ehtimoldan holi emas.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, vaqt o'tishi bilan ya'ni tuzum va ijtimoiy hayot, insonlarning qarashlari o'zgarishi sababli frazeologik birlik ifodalagan tushuncha bilan birgalikda uning o'zi ham eskirib tarixiylik kasb eta bordi. Endilikda ma'lum frazeologik birlikni tushunish uchun uning

tarixini bilish juda muhim masalaga aylana bordi. Frazeologik birliklarni tarixan tarkib topishi va mazmun mohiyat kasb etishi borasida to‘xtalar ekanmiz bevosita Ingliz va O‘zbek frazeologik birliklari qiyosiy tahlili asosida ushbu masalaga oydinlik kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu tahlillar tilshunos olimlar L.P.Smit, V.P.Jukov,V.N.Teliya, N.M.Shanskiy kabilar ta’riflagan keng ma’nodagi frazeologik birliklar asosida olib borildi. Keng ma’nodagi frazeologik birliklarni biroz chuqurroq anglatish maqsadida Sh. Rahmatullayevning “Lug ‘at boyligi so ‘zlardan va shu so ‘zlar asosida tuzilgan iboralardan tashkil topadi” e’tirofini yodga olish kifoya. Ushbu fikrga asoslaniladigan bo‘lsa, lug ‘at boyligini oshirishda yangi so‘zlarni o‘rganish bilan bir paytda yangi kontekstlarda qo‘llash amaliyotini o‘tash uchun Frazeologik birliklar asosiy ko‘makchi bo‘la oladi.

Quyidagi bir qator juda qiziqarli ingliz frazeologik birliklari tarixi bilan tanishib chiqaylik:

Ulardan biri bugungi kunda barchamizga juda mashhur kompaniya “ Bee line” nomi bilan tanish ayni shu tgarkibli iboradir: “ to make a bee line for”- ikki joy orasidagi eng qisqa masofadan foydalanish” ma’nosini bildiradi. O‘tmishda asalarilar ish jarayonida faqat ishi tog‘risida o‘ylashi va iniga aynan bir yo‘l orqali qaytadi deb o‘ylashgan. Lekin “ bees are single minded in their work” borasida yanglishilgan edi . Haqiqat esa aksincha ular birgalikda to‘da bo‘lib harakatlanib, bir bosh qirolicha ari tomonidan mamlakatlarini boshqarishini va biri ikkinchisi yurgan yo‘ldan izma iz yurishini ko‘rsatdi. (Idioms and their origin.page 28). Yuqoridagi ibora ishlatilgan nutq konteksti “ You can make a bee-line for the South of France, or slip into the Low Countries within minutes”(SALLY LINE brochure,1991.)- “ Fransiya janubi uchun eng qisqa yo‘lni tanlaysiz yoki daqiqalar ichida Quyi mamlakatlarga aylanasiz” ni tahlil qilsak, frazeologik birlik hozirgi zamonda tadbirkorlar tanlaydigan “eng qisqa, samarali va eng muhimi ham vaqt nuqatai nazaridan ham iqtisodiy tejamkor usul ma’nosiga to‘g‘ri kelishi ehtimoldan holi emas.

O‘zbek tilshunosligida turg‘un birikmalarga qisman yaqin “tor ma’no”dagi frazeologik birliklar tarixi tadqiqida davom etar ekanmiz yana bir juda qiziq FBga duch kelishimiz mumkin : “ Black sheep in the family” so‘zma so‘z –“ Oiladagi qora qo‘y”(Iborani O‘zbek tilidagi ekvivalenti guruch ichidagi kurmak yoki podadagi bemaza buzoq tarzida). Ushbu ibora tarixi ajoyib tarzda bayon qilinadi. Tarixdan ma’lumki Angliyada qo‘ylar yungi va terisi uchun juda qimmatli hisoblangan, chunki terini oshlash orqali qimmatbaho kiyimlar tayyorlashgan. Yung yoqali kiyimlar ,shunigdek po ‘stinlar ayniqsa zodagonlar orasida juda mashhur edi, endilikda ularni o‘zlari yoqtirgan ranglarda xilma-xil bo‘lishin xohlay boshlashdi. Natijada qo‘ylardan terisini shilish orqali olingan yung va teri rang barang tusda bo‘yalib ommaga taqdim qilinadi, vaholangki “qora qo‘ylar” terisini bo‘yab bo ‘lmas edi.Shuning uchun cho‘ponlar “ qora qo‘ylar” ni “bozor suymaydi deb yoqtirishmasdi “. Shu tariqa “ qora qo‘y” iborasi salbiy ifoda safatida ishlay boshladi. 1550 -yilda yozilgan balladada “ Qora qo‘ylar- vaxshiy maxluqlar” deya kuylandi,1598 -yilda esaTomas Bastard bechora “ qora qo‘ylarni “ vaxshiylikda ayblaydi. 1892-yilda yuqoridagi omma tomonida bo ‘lmagan Ridyuard Kipling “ Gentlemen Rankers” asarida nafaqat “ qora qo‘ylar” ,balki ular tag zamirida “oddiy ommaning “ nolalarini qo‘ylar tilidan kuyladi. [1]

[1] . https.uzbaza.uz

Frazeologik birliklar til birligi doirasida “qora “rang xususida so‘z borar ekan, bu borada G‘arb va Sharqda tubdan farq qiluvchi qarashlar mavjudligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin: g‘arb mamlakatlarida diniy qarashlarga asoslangan holda “ qora” –shayton , do‘zax va barcha salbiy voqea- hodisa va moddiyatlarga, nisbatan qo‘llanadi. Turk Hoqonligi davri sharqida esa “qora” buyuklik, kuch-qudrat timsoli hisoblangan,hattoki hozirda ham “ qora” “buyuk” so‘zi o‘rnida Turk tilida ishlatiladi.Shuningdek “ qora qo‘chqorni” turkiy xalqlarda kuch quvvat manbai tarzida hatto yuqori baholaydilar. Masalan : “ Qora qo‘chqorni yog ‘idan palov yeb ulg‘aygan …..“iborasi o‘zbeklarda “ baquvvat” sifati bilan ma’nodoshdir. “Qassobga oq qo’y ham bir ,qora qo’y ham bir” tarzidagi o’zbek maqoli bilan yuqoridagi fikrni birmuncha jonlantirish mumkin Hozirda esa “qora” ning salbiy xususiyatlari “ qora bozor”,”qora mehnat”, “qora ishchi” tarzida madaniyatlararo aloqalar vositasida o‘zbek tiliga ham ko‘chib, noqonuniy harakatlar va quyi pog‘onani ifodalashda keng qo‘llanilmoqda.

Yana bir diqatga sazovor tarixiy frazeologik birliklardan biri “ blue blooded” – “ ko‘k qonli” kelib chiqishiga nazar solsak, bu ibora to‘g‘ridan to‘g‘ri Ispan tilidan kirib kelgan va “ zodagon oilada tug’ilgan, asilzoda toifa “ ,hamda Angliyada paydo bo‘lgan va hozir ham urfda bo‘lgan “born with a silver spoon in ones mouth”-“ og’zida kumush qoshiq bilan tug’ilgan” frazeologik birligi bilan ma’nodosh tushunchani bildirgan. Bunga sabab Ispan zodagaonlari chiroyli oppoq terisidan ko’rinib turgan ko’m-ko’k qon tomirlari bo’lganligi haqida ma’lumotlar mavjud (ayni shu lug’at 35-bet)

Blue stocking an erudite woman - aynan tarjimasi “ko’k paypoq” bo’lgan va “ bilimli ayol ma’nosini bildirgan FB esa 1400-yil Venetsiyada ziyoli ayol va erkaklar tomonidan tashkil etilgan jamiyat nomidan kelib chiqqan. Ma’lumki Italiyada tor kalgotkilar madaniyat va tarbiyalilik aslzodalik ramzi bo‘lgan .Ushbu harakat muvaffaqiyat bilan Parij va Londonda ham ayollarni ta’lim olishiga ko’maklashish maqsadida tashkillandi. Ushbu ibora hozirgi kunda ham ba’zan erkaklar ustidan kulish tarzida uchraydi.” Bluestocking is now a man’s term of abuse when faced with the ugly possibility that a woman may be cleverer than he is “ [2]

Blue- eyed boy – “ ko’k ko’zli “begunohlik, beg’uborlik ramzi” bo’lsa Blue- eyed girl go’zallik timsoli sifatida namoyon bo’ladi. O’zbekona qarashlarda esa moviy –“ ko’k ko’zlar” ba’zan ajnabiylik ,ba’zan esa yolg’onchilik ma’nolari yuklangan holda steretipga aylangan.

Misol : Rating standards differ from manager to manager in a single company. There is also the “blue eyed “ syndrome . If a manager likes you, you are well paid.[3]

“Top banana” – ma’lum bir faoliyatdagi eng muhim va birinchi darajali inson . Ushbu atama teatr tomoshalari uchun ishlatilgan maxsus so‘z bo‘lgan.

Second banana-ikkinchi darajali muhim shaxs yuqoridagi kabi komediyani tashkillovchi shaxs sifatida teatrga oid atama sifatida ishlatilgan norasmiy so‘z hisoblangan

“Go banana”=” go mad “-jinni bo‘lib qolmoq. Misol: Jim Lehrer predicted John Erlichman would probably go bananas when testified the next day.[4]

[2] The times,February 5, 1992
[3] DAILY TELEGRAPH,May21,1992

Ba’zi idiomatik birikmalar uchun qisqartmalar ham shakllnagan, chunki ular o‘z davrida juda mashhur edi. Shunday qisqartmalardan biri AWOL (acronymfor Absent without leave[5] – ketmasdan yo‘qolib qolish) ya’ni ruhsat so’ramasdan g‘oyib bo‘lib qolish. O’zbek tili bilan qiyoslanganda ushbu iboraga “ Quyon bo‘lish yoki “ Quyonni rasmini chizish” zamonaviy iborasi ma’nodosh bo’la oladi, ammo o’zbek tilidagi ekvivalenti birmuncha zamonaviy, ingliz tilidagi variant esa Amerika fuqarolik urushi va Birinchi Jahon urushi yillarida paydo bo’lganligi ma’lum qilinadi. Quyidagi misol orqali ushbu frazeologik birlikni yanada chuqurroq o rganish imkkoniyati paydo bo‘ladi. The troops went AWOL to express their complaints about food, work, and leave time.[6]

Qisqa xulosa o‘rnida ta’kidlab o‘tish joizki,Frazeologik birliklar davr ruhi bilan hamohang ravishda shu tilga xos lingvokulturologik xususiyatlarning ham inikosidir. Ular paydo bo‘lgan va ishlatilgan davr to‘g‘risida kontekstidan kelib chiqqan holda xabarni ifodalasa, o‘sha davr muhiti, ijtimoiy hayoti bevosita frazeologik birlikning ma’nosini ifodalab keladi. Shuningdek frazeologik birliklar xabarni o‘zini axborot tarzida yetkazib qolmay ularga nutqiy bo‘yoqdorlik ifodasini ham qo‘shgan holda o‘quvchiga yetkazadi , bu esa o‘z navbatida nutqning ta’sirchanligini oshirish natijasida undan ko‘zlangan maqsadning amalga oshish imkoniyati va tezligini oshirishga xizmat qiladi. Nutq egasidan Frazeologik birlikni o‘z vaqtida va kerakli tinglovchi yoki o‘quvchiga to‘g‘ri yo‘naltirish vazifasi yuklanadi va uni uddalash ham o‘ziga xos mahorat talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Dictionary of Idioms and Their Origins,Linda and Roger Flavell ,London 1994.P 35-36.

2. Oxford Ditionary of Idioms.Second edition.Oxford University press.Judith Siefring. New York ,2004. P15-16

3.Longman Dictionary of Contemporary English 5th edition.c.Pearson education Limited. Edinbugh Gate.England. 2009.

4. https.uzbaza.uz

5. A bus Of My Own ,Jim Lehrer.1992, P 11

6. COBOUILD CORPUS: Washington National Public Radio, (speech text) 1991.

[4] A bus Of My Own ,Jim Lehrer.1992, P 11
[5] Dictionary of Idioms and Their Origins,Linda and Roger Flavell ,London 1994.P 16-17.
[6] COBOUILD CORPUS: Washington National Public Radio, 1991.